

**ORIENTAL UNIVERSITETI**



**“INNOVATSION TADQIQOTLARDA O’ZBEKISTON  
TARIXINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDA  
II XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI TO’PLAMI**

**24 Aprel, 2024 yil**

**Toshkent-2024**

**Mas’ul muharrir**

**Hojjakbar Hamidov – Oriental universiteti, Tarix kafedrası, professor, tarix fanları doktorı**

**Tahrir hay’ati a’zolari**

**Azamat Sharipov – Oriental universiteti Tarix kafedrası mudiri**

**Sherzod Jo’rayev – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası katta o’qituvchisi**

**Islombek Bobojonov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası dotsenti v.b., t.f.f.d. (PhD)**

**Mirzoxid Raximjonov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası o’qituvchisi**

**Taqrizchilar**

**Soibjon Tillaboyev – Nizomiy nomidagi TDPU O’zbekistonning eng yangi tarixi kafedrası mudiri, tarix fanları nomzodi**

**Muhammadjon Abdulhamidov – O’zbekiston xalqaro islam akademiyasi, islamshunoslik fanları bo'yicha falsafa doktorı**

*Mazkur ilmiy to‘plamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagı PF-27-soni “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g’risida”gi Farmonining 46-maqсадидаги belgilangan Oliy ta’lim bilan qamrov darajasини 50 foizга yetkazish va ta’lim sifatini oshirish vazifasidan kelib chiqib, Oriental universiteti Tarix kafedrası tomonidan 2024-yil 24-aprel kuni tashkil etilgan “Innovatsion tadqiqotlarda O’zbekiston tarixinining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o’rin olgan.*

*Unda ko’zga ko’ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarining qadim davrdan boshlab bugungi kungacha O’zbekiston tarixinining dolzarb masalalari bilan bog’liq qator ilmiy izlanishlari natijalari o’rin olgan.*

*Anjuman materiallari O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi, davlat, jamiyat va ilm-fan hamda madaniyatning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati bilan bog’liq qiziqarli faktik ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu to‘plamdan tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, pedagoglar, oliy o‘quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.*

*To‘plamdagagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas’uldir!*

*Ushbu to‘plam Oriental universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrasining 2024-yil 8-may kuni bo‘lib o’tgan 18-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.*

- 4 Хидиров Х. Ўзбекистон ташқи сиёсати: сиёсий модернизация ва интеграция // Фалсафа ва Ҳуқуқ. – 2007. – № 1. – Б. 21–22; Касымова Н. А., Жураев С. А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: Академия, 2008. – С. 233;
- 5 МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. <http://www.mfa.uz>
- 6 МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-болгарские отношения. Сотрудничество в политической сфере. <http://www.mfa.uz>.
- 7 ЎзР МДА. фонд – м-7, рўйҳат – 1, жилд – 725, варақ – 68.
- 8 Глинкина С. П. Центрально-Восточная Европа на пути в Евросоюз // Новая и новейшая история. – Москва, 2007. – № 3. – С. 46–65.
- 9 2004 йилда Европа Иттифоқига қўшилган давлатлар: Венгрия, Кипр, Латвия, Литва, Мальта, Польша, Словакия, Словения, Чехия, Эстония – муаллиф.
- 10 2007 йилда Европа Иттифоқига қўшилган давлатлар: Болгария, Руминия.
- 11 Ўзбекистон Президенти Венгрия делегациясини қабул қилди // Халқ сўзи. 2020. 19 февраль.
- 12 Пресс – служба госкоминвестиций Узбекистана // m.uz.sputniknews.ru.
- 13 ЎзР МДА. фонд – м-7, рўйҳат – 1, жилд – 725, варақ – 107.
- 14 Петер Сийярто: ўзаро ҳамкорлик янада мустаҳкамланишидан манфаатдормиз // Халқ сўзи. 2020. 19 февраль
- 15 МИД РУз // Политика Узбекистана по развитию международного торгово-экономического сотрудничества. <http://www.mfa.uz>
- 16 МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-Болгарские отношения. Сотрудничество в торгово-экономической сфере. <http://www.mfa.uz>.
- 17 МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-Болгарские отношения. Сотрудничество в торгово-экономической сфере. <http://www.mfa.uz>.
- 18 Ўзбекистон Республикаси ТИАИСВ Жорий Архиви. Ўзбекистон Европа Иттифоқи савдо-иқтисодий алоқалари тўғрисидаги маълумот. 1- варак.
- 19 Латвийские компании осваивают новые рынки, Узбекистан стал крупным партнером с взаимным торговым оборотом в 100 миллионов евро // m.uz.sputniknews.ru.
- 20 ЦГА РУз. Отчёт // Ф-м-2, д – 164, л - 31.
- 21 ЦГА РУз. Пресс – релиз // Ф-м-2, д – 169, л - 27.

## **TAXT VORISINING SANKT-PETERBURGDAGI TA'LIM DASTURI**

**Klichev Oybek Abdurasulovich,**  
 Buxoro davlat universiteti  
 Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи dotsenti,  
 tarix fanlari doktori (DSc)  
[klichev\\_oybek@mail.ru](mailto:klichev_oybek@mail.ru)

**Annotatsiya.** Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivida mavjud hujjatlar bilan ishslash jarayonida Buxoro amirlari bilan bog'liq yig'majiddlar aniqlandi. E'tiborli jihat shundaki, ular orasida bo'lg'usi taxt vorisi hisoblangan Sayyid Mir Olimning Sankt-Peterburg kadet korpusidagi ta'lim olishiga doir hujjatlar o'zining birlamchi manbaviy ahamiyatga egaligidir. Tadqiqotimiz orqali ilmiy jamoatchilik e'tiboriga mang'it xonadoni vakilining uch yillik ta'limi davrida qaysi fanlarni o'zlashtirganligi yohud qanday bilimlarga ega bo'lganligi xususida o'z xulosalarimizni taqdim etmoqdamiz.

**Kalit so'zlar:** Amir, kadet korpusi, to'rajon, dastur, fan, Sayyid Mir Olim, fransuz tili, tarix, polkovnik Demin, flora va fauna, Tersk kazaklar qo'shini, imtihon.

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ПРОГРАММА НАСЛЕДНИКА ПРЕСТОЛА В САНКТ-ПЕТЕРБУРГЕ

**Аннотация.** В процессе работы с документами, имеющимися в Архиве внешней политики Российской империи, были выявлены архивные дела, связанные с бухарскими эмирами. Примечательно, что среди них имеются документы являющиеся первоисточником. Эти документы об образовании будущего наследника престола Сайда мир Алима в кадетском корпусе Санкт-Петербурга. Благодаря нашему исследованию мы представляем научному сообществу наши выводы о том, какие предметы освоил представитель семьи Мангитов, и какие знания он приобрел за время трехлетнего обучения.

**Ключевые слова:** Амир, кадетский корпус, тураджан, программа, наука, Сайд мир Алим, французский язык, история, полковник Демин, флора и фауна, Терское казачье войска, экзамен.

## EDUCATIONAL PROGRAM THE HEIR TO THE THRONE IN ST.PETERSBURG

**Abstract.** In the process of working with documents available in the Archive of the Foreign Policy of the Russian Empire, archival files related to the Bukhara emirs were identified. It is noteworthy that among them there are documents that are the primary source. These documents are about the education of the future heir to the throne, Sayyid mir Alim, in the cadet corps of St. Petersburg. Thanks to our research, we present to the scientific community our conclusions about what subjects a representative of the Mangit family has mastered, and what knowledge he has acquired during his three-year studies.

**Keywords:** Amir, cadet corps, turajan, program, science, Seyyid mir Alim, French, history, Colonel Demin, flora and fauna, Terek Cossack troops, exam.

Agar muarrixda tarixiy davrni nazariy tiklash uchun xizmat qiluvchi manba-ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, unda tarixchi mazkur masalani hal etishni uch yo'lini tanlaydi. Birinchidan, davr yoki voqeylek xususida umumiyl xarakterdagi qarashlarni jamlab, ushbu masalaga o'z munosabatini bildiradi.

Ikkinchidan, o'zida mavjud tarixiy bilim, qarashlar asosida xulosalarni tarixiy fakt sifatida taqdim etishga intiladi. Uchinchidan, obyektiv tarix yozishni maqsad qilganlar esa o'z oldiga qo'yilgan muammoga aniqlik kirituvchi ma'lumotlarga ega bo'limganicha bu masalani yoritishni ma'qul ko'rmaydi.

Bugungi kunga kelib, ilmiy jamoatchilik, tarixchilar, xususan, gidekskursavodlar orasida Sayyid Mir Olimning Sankt-Peterburgdagi ta'limi xususida umumiy xarakterdagi ma'lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari so'nggi mang'it hukmdorining imperiya markazida olgan ta'limi to'g'risida "afsonabop" qarashlarga ham ega ekanligi sabab mazkur maqolaning arxiv manbalariga asoslanib tadqiq etishni, mavhum bo'lib turgan jihatlarga oydinlik kiritishni o'z oldimizga maqsad qildik.

Turli adabiyot va manbalarda 1893-1896-yillar davomida Sayyid Mir Olimning Sankt-Peterburgdagi kadet korpusida ta'lim olganligi xususida ma'lumotlar mavjud. Ta'lim dasturi xususida birlamchi ma'lumotlar Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi yig'majildlarida saqlanmoqda. Ushbu hujjatlarga asoslanib, taxt vorisining korpusda o'zlashtirgan fanlari xususida quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Sayyid Mir Olim kun davomida olti soat kadet korpusida o'tiladigan umumfanlar bo'yicha o'z bilimini oshirgan, bir yarim soat esa amaliy fransuz tili bilan shug'ullangan. Shu o'rinda, kadet korpusidagi yetti yillik ta'lim fanlari To'rajon uchun uch yilga o'zlashtirilishi rejalashtirilgani hamda ayrim fanlarni qisqartirishga to'g'ri kelganini ta'kidlash darkor. Sayyid Mir Olim bu xususda quyidagicha xotirlaydi:

*"Tartib-qoida yuzasidan u yer maktablarida yetti yil o'qitilar edi. Binobarin, padari buzrukvorim istagiga ko'ra ta'limotni tezlashtirish maqsadida o'qish muddati uch yil deb qaror qilindi. Bu uch yil orasida yoz oylari maktablar yopilgan kezlari Buxoroga, padarim xizmatiga kelib-ketib turardim"*[1].

Amirzoda o'zlashtirishi belgilangan fanlar jamlanmasi korpusda o'tiladigan fanlar asosida tayyorlangan. Sayyid Mir Olim polkovnik Demin uyida istiqomat qilgan va shu yerda ta'lim olgan. Bunga birinchi sabab sifatida tabiatan barcha masalalarda ilg'or bo'lishga intilish hissi kuchli bo'lган To'rajon o'zidan 4 yosh kichik bo'lган bolalar orasida o'zlashtirishda orqaga qolmaslik, ikkinchidan, o'zlashtirish ko'rsatkichi orqaga qolish holati To'rajonga ta'sir etish xavfi edi. U dastlab, kadet korpusidagi bolalardan bilim ko'nikmasi jihatidan orqada bo'lishiga qaramay jismonan kuchliroq edi.

Sayyid Mir Olim uchun maxsus tuzilgan fanlar jamlanmasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular quyidagi fanlardan tarkib topganligini ko'rishimiz mumkin: rus tili, fransuz tili, arifmetika, algebra, geometriya, matematika, fizika, tabiiy tarix, tarix, chizmachilik, huquqiy bilim asoslari.

To'rajonning diniy mansubligidan kelib chiqib, kadetda o'tiladigan cherkov slavyan tili unga o'qitilmagan. Uning o'rniga dastlab rus tilidagi so'zlarning mazmuni va mohiyati o'rgatilgan, so'ngra esa badiiy rus tili va adabiyoti bilan tanishtirilgan. Fransuz tili – amaliy fransuz tilini o'rganishda dastlab elementar grammatika, shu bilan birga XVII asrdagi buyuk fransuz adabiyoti namoyondalari merosi bilan tanishtirishga e'tibor qaratilgan. To'rajonga rus tilini o'rgatishdan

maqsad uni imperiya madaniyati bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, uning fransuz tilini bilishi lozimligi ushbu tilning xalqaro munosabatlar tili sifatidagi mavqeyidan kelib chiqqan edi.

Arifmetika fani korpusdagi kabi to'liq o'tilgan, algebra esa umumiy tushuncha va mazmun nuqtayi nazaridan, geometriya fani jism yuzasining elementar holati, sig'im, yuza hamda umumiy masalalar doirasida o'rgatilgan. Fanlarning xususiyatidan kelib chiqib tabiiy tarix yo'nalishi fan sifatida o'tilgan. Unda Buxoro va u bilan chegaradosh davlatlarning flora va faunasiga oid bilimlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu fan doirasida anatomiya va gigiyena haqidagi tushunchalar ham berib borilgan.

Tarix fani jahon tarixi yo'nalishida o'tilgan. Qadimgi, o'rtalasrlar davri qisqartirilgan holda, yangi davr tarixi kengroq o'qitilar edi. Rossiya tarixini o'rganish bilan birga, ma'lum qisqartirishlarga ega sharq mintaqasi tarixidan ham xabardor qilingan. To'g'rirog'i imperiya manfaatlarini ko'zlagan holda, To'rajonga jahon va sharq davlatlari tarixidan ko'ra, Rossiya imperiyasi tarixidan ko'proq bilim berilgan.

Uch yillik ta'lim dasturiga umumiy hamda shariat huquqiga daxldor tushunchalar, Rossiya davlat huquq va qonunlari, statistika va siyosiy iqtisodiy masalalar, chizmachilik (ornamentlarni qalam va bo'yoqlar bilan chizish) kabi fanlar ham kiritilgan edi. Qisqartirilgan fan dasturidagi tabiiy tarix, shariat huquqiga tegishli tushunchalar, chizmachilik fanlari To'rajonning ijtimoiy va diniy kelib chiqishiga qarab moslashtirib tuzilganligini ko'rsatadi. Quyida ushbu fanlarning yillar kesimida taqsimlanganligini ko'rshimiz mumkin:

*Birinchi yilda* rus tili - yozuv, grammatika namunalarini yodlash, fransuz tili, arifmetika, geometriya, tabiiy tarix – (flora va fauna), geografiya (umumiy va Rossiya mintaqasi), tarix (jahon, umumiy va qisqa Rossiya tarixi);

*Ikkinci yili* rus tili, fransuz, arifmetika algebra, geometriya, tabiiy fanlar tarix – (fiziologiya va inson anatomiyasi), Rossiya va Osiyo mintaqasi geografiyasi, Rossiya tarixi batafsil, qisqacha Sharq tarixi, chizmachilik;

*Uchinchi yilda* esa rus va fransuz tillari hamda adabiyotlar bilan tanishuvga yo'naltirilgan algebra geometriya, tabiiy tarix – (gigiyena) Osiyo geografiyasi, Rossiya va Sharq tarixi, qonunshunoslik, statistika siyosiy-iqtisod va chizmachilik[2].

Ta'lim dasturida umumiy fanlar bilan birga sakkiz oylik harbiy ta'limga keng o'rin berilgan.

Uch yillik ta'lim yakunida To'rajon korpus imtihon hay'ati oldida o'zlashtirilgan fanlar yuzasidan sinovlarni topshirgan. Imtihon hay'ati tarkibi harbiy-o'quv muassasalar boshqarmasi boshlig'i infanteriya generali N.A.Moxotin-rais, uning yordamchisi N.I.Yakubovskiy, Nikolayev kadet korpusi direktori general-leytenant Y.A.Drujinin, Harbiy vazirlik Osiyo qism boshlig'i general-leytenant A.P.Protsenko, Tashqi ishlar vazirligi vakili D.K.Sementovskiy, Nikolayev kadet korpusi sind inspektori I.S. Demin va fan o'qituvchilaridan iborat edi.

Imtihonlar ikki kun uch soatdan davom etgan. Gazeta sahifalarida ushbu voqeal masalasiga tegishli ma'lumotlarga ko'ra, "To'rajonning rus tilini bilish

*darajasi mazkur fan imtihonida namoyon bo‘ldi. Ikki yarim yil oldin birta ham ruscha so‘zlarni bilmagan hamda uni alifbodan o‘rganishni boshlagan To‘rajon qisqa vaqt davom etgan mashg‘ulotlar samarasi o‘laroq rus tilini a’lo darajada o‘rgandi. Nafaqat rus tili fanidan berilgan savollarga, balki rus hamda chet el adabiyoti namunalarini ta’riflash [yuzasidan berilgan savollarga ham] adabiy rus tilida [mukammal] javob bera oldi. Boshqa fanlar qatorida artilleriya, fortifikatsiya, fizika, tabiiy va jahon tarixidan imtihonlarni yaxshi topshirdi. To‘rajon taktik masala va rejalar yuzasidan tuzilgan savollarni ham hal eta oldi. Tarix fanidan berilgan savollarga Sharq va Rossiya tarixiga doir muhim ma’lumotlarni taqdim etdi. Imtihon hay’ati a’zolari bir ovozdan imtihon savollariga berilgan javoblar “juda yaxshi” degan xulosaga keldilar[3].*

Imtihon natijasidan so‘ng To‘rajon Tersk kazak qo‘sishnlari ofitseri sifatida qo‘sish safiga kiritildi. Sayyid Mir Olim o‘z xotiralarida kadet korpusida ta’lim olganligini va imtihon topshirganini quyidagicha ta’riflaydi:

*“Shunday qilib, men uch yil davomida ta’lim olib, mamlakat tartib qoidalarini biladigan darajada bilim hosil qildim, o‘qishlarni tugatib, imtihon topshirdim. Rus davlati ulug‘lari meni Buxoro davlati valiahdligiga munosib bo‘lganligim uchun Buxoroga qaytarishdi ”[4].*

Mazkur tadqiqot natijasida Said Mir Olimning Nikolayev kadet korpusidagi ta’limi maxsus dastur asosida olib borilganligi, yakuniy imtihon natijalari ijobiliy baholanganligi ma’lum bo‘ldi. Taxt vorisining korpusda olgan dunyoviy va harbiy fanlarga doir ko‘nikmasi undan oldingi o‘zlashtirgan bilimlarini boyitishga ko‘maklashdi. Zero, uning tashabbusi va rahnamoligida Buxoroda qurilgan Olimxon madrasasi nafaqat diniy, balki dunyoviy, zamon talablariga mos, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi ilmlar beradigan ma’rifat maskani bo‘lib qoldi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi / forsiydan A.Irisov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1991. – B.6.
2. Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxiv, 147-fond, 485-ro‘yxat, 263-yig‘majild,54- varaq.
3. Бухарский наследный принц // Переводчик, 1896 год 5 мая №18.
4. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi / forsiydan A.Irisov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1991. – B.7.
5. Klichev O. Scholarships of Emirs of Bukhara // Oriente moderno. – 2020. – T. 100. – №. 1. – S. 57-74.
6. K Oybek .[The Role of the Russian Political Agency in Diplomatic Relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire](#) // Oriente Moderno, 2023 Oriente Moderno. 2023. – Volume102: – Pp. 227-239 Brill. (Print Only- ISSN:0030-5472, Online – ISSN: 2213-8617.)

## MUNDARIJA

<b>So‘zboshi .....</b>	3
<b>Prof. Dr. Ahmet YILDIRIM Kelâmcı ibn fûrek ve tasavvuf istilahlariyla ilgili kitâbu 'l-ibâne adli eseri .....</b>	5
<b>Қ.Ражабов Тошкент зилзиласи (1966 йил апрел) ҳамда унинг пойтахтдаги демографик вазиятга таъсири .....</b>	13
<b>F. Ismatullayev O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligining ayrim masalalari .....</b>	22
<b>O. Klichev Taxt vorisining Sankt-peterburgdagi ta’lim dasturi .....</b>	28
<b>Ш.Кўлдашев Жадидлар мероси – шарқшунослик институти қўлёзмалари хазинасида .....</b>	33.
<b>O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVR MUAMMOLARI</b>	
<b>I.Jo‘rayev O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi: ko‘chmanchi va o‘troq aholining o‘zaro munosabatlari .....</b>	38
<b>Б.Исабеков Эртош-дўлана мозор-қўргонлариниг ўрганилиши .....</b>	45
<b>D.To‘xtasinov Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining quyi qatlamida uchratilgan ochiq va yopiq turdag'i ba'zi idishlarning tipologiyasi va qiyosiy tahlili .....</b>	51
<b>Б.Турганов Қадимги Хоразм ва Оролбўй минтақасидаги сак қавмлари бадиий металл буюмлари .....</b>	58
<b>M.Jalilov Qizilqum cho‘lining o‘rganilish tarixi .....</b>	65
<b>Б.Муминов Фарғона водийси бронза ва илк темир даври ёдгорликлари ўрганилишининг асосий натижалари .....</b>	69
<b>O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYO HUDDIDA IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT</b>	
<b>X.Юсупова Тошкент воҳаси илк ўрта асрларда: ижтимоий - иқтисодий ҳаёт ва шахарсозлик маданияти ривожланиш омиллари .....</b>	74
<b>S.Saparov Markaziy Osiyo hukmronligi uchun kurashda kidariylarning o‘rni .....</b>	77
<b>Sh.Jurayev, M.Islomova Kuboj yoki Xutak xotun .....</b>	82
<b>Sh.Sultonov G‘arbiy Turk xoqonligining tashkil topishida Buyuk Ipak yo‘lining tutgan o‘rni va O‘rta Osiyodagi etnosiyosiy jarayonlarga ta’siri .....</b>	85
<b>I.D.Rustamboyev, T.B.Qo‘chqarov Arablarning Movarounnahrga kirib kelishi, yohud Qutayba ibn Muslim tarixi .....</b>	93
<b>T.B.Qo‘chqarov Andalusiyada arablar .....</b>	102
<b>B.Umarov Somoniy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan buniyodkorlik ishlari ...</b>	109
<b>З.Зиннатуллаев Марказий Осиёдаги биринчи ренессанс даврида илм-фанга ҳомийлик масалалари .....</b>	114
<b>P.Rajarov XI asrda Buyuk Saljuqiylar davlati (1038-1157) da tasavvuf ilmi rivoji ....</b>	119
<b>М.А. Абдуҳамидов Ином Мотуридий ва Ҳаким Самарқандий муносабатлари .....</b>	124
<b>I.Bobojonov O‘zbekistonliklar va misrliklar o‘rtasidagi aloqalarda so‘ngi xorazmshoh – Sayfiddin Qutuzning tutgan o‘rni haqida ayrim mulohazalar .....</b>	127
<b>S.Z. Quvonov Tassavuf g‘oyalarining targ‘ibotida islom dinining ma’naviy qiyofasining jonlanishi (naqshbandiya tariqati va mavlono orif deggaroniy faoliyatini misolida) .....</b>	131
<b>D.M. Xaydarov O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot .....</b>	137
<b>J.D. Akramov So‘ngi Xorazmshohlar va abbosiyilar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar...</b>	141
<b>Ҳ. И. Азимов Буюк салтанат ва улкан тарихий мерос .....</b>	145
<b>Altiboyev Y. E. Amir Temurning “Sharq siyosatida” Shimoliy Yuan mo‘g‘ullarining o‘rni .....</b>	150
<b>Rustamboyev I.D., Mamarajabov B. B. Amir Temur vafotidan so‘ng taxt uchun kurash .....</b>	154